

<http://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)



4
—
2021

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

Халқаро илмий-методик
журнал

Международный научно-методический
журнал

International scientific and methodical
Journal

ТАЪЛИМ ВА ИННОВАЦИОН ТАДҚИҚОТЛАР



№ 4, 2021
август

<p>Муассис: Бухоро давлат университети Фан ва таълим МЧЖ</p> <p>Бош муҳаррир: Маъмуроў Баҳодир Бахшуллаевич</p> <p>Жамоатчилик кенгаши раиси: Ҳамидов Обиджон Ҳафизовиҷ, Бухоро давлат университети ректори.</p> <p>Таҳририят кенгаши раиси: Махмудов Мэлс Ҳасанович</p> <p>Масъул котиб: Акрамова Гулбахор Ренатовна</p> <p>Таҳририят манзили: Бухоро шаҳар, Қ.Муртазоев кӯчаси, 16-й.</p> <p>Телефон: +998(90)744-00-22</p> <p>E-mail: eirurnal2020@gmail.com</p> <p>Журналнинг электрон сайти: www.interscience.uz</p> <p>Журнал ОАК Раёсатининг 2021 йил 4 иондаги 300/6-сон карори билан 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ бўйича бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илемний даражаларига талағорларнинг диссертацияни ишлари юзасидан диссертациялари асосий илемний натижаларини чоп этиши тавсия этилган миллий илемний нашрлар рўйхатига киритилган.</p> <p>Босишига руҳсат этилди: 07.07.2021 й Коғоз бичими 60x84 1/8. б/т.12,5. Буюртма раками 12 «Бухоро вилоят босмахонаси» МЧЖда чоп этилди. Бухоро шаҳар.</p> <p>Журнал Узбекистон Оммавий аҳборот воситаси давлат рўйхатидан 28.07.2021 йилда 9305 раками билан рўйхатдан ўтган.</p> <p>Журнал йилда 6 маротаба (хар 2 ойда) ӯзбек, рус ва инглиз тилларида чоп этилади.</p> <p>«Таълим ва инновацион тадқиқотлар» халқаро илемний- методик журналидан кўчирриб босиши факат таҳририятнинг розилиги билин амалга оширилади.</p> <p>Маколада келтирилган фактларнинг тұғрилиги учун муаллиф масъулдир.</p>	<p>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</p> <p>Хамидов О. Х., Маманазаров А. Б., Явмутов Д. Ш., Падалка О. С., Гушко С. В., Кулишов В. В. Цивилизационные изменения в образовании: проблемы их реализации</p> <p>Рузиева Д. И., Тарасова С. И. Формирование разнообразных поведенческих моделей оптимального взаимодействия будущего врача (из опыта проведения практических занятий по курсу «педагогика»)</p> <p>Тоҳтасимов Ш. М. Воспитание детей искусством хореографии</p> <p>Магрупов А. М. Технология подготовки учителя к управлеченческой деятельности</p> <p>Феруз Ҳ. Ғ. Профессионал таълимда мутахассис тайёрлашда назария ва амалиёт интеграциясини таъминлашнинг ташкилий ва педагогик модели</p> <p>Ruzieva D. I. Rustamova N. R. Analysis of theoretical studies of the concepts of vitagen and vitagenic education</p> <p>Suropov B.M. Use of mobile education in professional training of students</p> <p>Rakhmonova M. X. Sharq mutafakkirlari asarlarida komil inson ma’naviyatini yoritilishi masalalari</p> <p>Sulaymanova D. Formation of skills of using mediatechnologies in pupils</p> <p>Kuchqarova F. M. Bo’lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tarbiya fanini o‘qitishga tayyorlash metodikasi</p> <p>Рахматов Ш. А. Олий таълим муассасаси менеджери инновацион - тадбиркорлик хислатларини баҳолаш методи.</p> <p>Абдуллаева Н. Ш. Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятига кластер тизимини жорий этишнинг назарий-методологик асослари</p> <p>Bayturaeva N. Mustaqil ta’lim faoliyatida boshlang’ich sinf o‘qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning o’ziga xos xususiyatlari</p> <p>Baychayev F.X. Kon –metallurgiya sanoati tizimi bo’lajak mutaxassislari uchun fizikadan amaliyot darslarida kasbiy yo‘naltirilgan masalalarni saralash metodikasi</p> <p>Mamurova F. I. Problems of theoretical study of professional competence of construction engineers</p> <p>Хазратов Ф. Х. География аҳборот тизимлари ёрдамида географик масалаларни бажариш</p> <p>Матжанов Н. С. Методология совершенствования преподавания квантовой физики в вузе</p>	<p>6</p> <p>17</p> <p>25</p> <p>32</p> <p>38</p> <p>42</p> <p>47</p> <p>54</p> <p>61</p> <p>66</p> <p>70</p> <p>77</p> <p>89</p> <p>95</p> <p>103</p> <p>108</p> <p>117</p>
--	---	---



Кадиров Р. Х. Спортчи тайёргарлигининг диагностикаси ва коррекцияси	127
Шукуров Р. С. Талабалар организмининг масофавий таълим шароитида функционал мослашув хусусиятлари	141
Рўзметов Р. Т. 12-14 ёшли баскетболчиларда қўл ва оёқ кучини ҳаракатли ўйинлар ёрдамида ривожлантириш самарадорлиги	154
Makhmudov M. K. Development of skills designing the process of training future teachers of physical education on the basis of acmeological approach	160
Raximov F. B. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati	166
Раҳмонова Г. С. Малака ошириш тизимида масофавий ва онлайн таълим	173
Намазова С. Ш. Бошлангич синф ўкувчиларида табиатга бўлган қизиқишни шакллантиришнинг шакл, метод ва воситалари	178
Khaitova N. Practice of development of students motivation when using gamification	187
Мизамова X. Боланинг ҳар томонлама ривожланишида мусиқий таълимни ташкил этиш масалалари	192
Yusupov E. Kh. Organizing physics lessons using smart-technologies	198
Қосимов Ф. Ф. Математик фанлардан мустақил таълимни ташкил этиш зарурити (бошлангич таълим бакалавр йўналиши талабалари)	202
Мўминова Н. С. “Тил ва нутқ” ривожланиш марказини методик таъминлашнинг ўзига хос жиҳатлари	208
Охунов И. А. Рефлексив ёндашув асосида талабаларнинг Виртуал борлиқка маъсуллиятли муносабатни ривожлантиришнинг методологик асослари	213
10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Насруллаева Г. Тилшуносликда антропоморфик метафораларнинг ўрганилишига доир	219
Утеулиева М. Она тили таълимида нутқ сўзлаш кўниммасини ривожлантирувчи ўкув топшириқлари	226
Ҳамроев F. X. Машқларнинг кўнимма ҳамда малака ҳосил қилишига кўра таснифланиши	231
Норкузиев Ж. Ш. Хрононимларнинг мавзуй таснифига доир	242
Хурсанов Н. И. Матнлар корпусини яратиш	247
Кожалепесова П. А. Бошлангич синфларда ўкув лугатлари билан ишлаш орқали нутқий малакаларни ривожлантириш	254
Рахимова С.Ж.Ўзбек тили фразеологик полисемиясининг лексикографик талқини муаммолари	261
Atamurodova G. Boshlang‘ich sinflarda talaffuz mashqlari ishlab chiqish tizimini shakllantirishda savod o‘rgatish darslarining o‘rnini va ahamiyati	268
Ражапова К. Нутқий кўниммаларни тизимли ривожлантириш тамойиллари	273
19.00.00 – ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
Самарова Ш. Р. Ўсмирларда ижодкорлик фаолиятини ташкил қилишнинг психофизиологик хусусиятлари	281
Омонов Б. М. IT парк ёшларга қандай имкониятларни беради?	287
Файзиев Я. З. Психологических закономерностей формирования у спортсменов	291
Каримов Р. Р. Ижодий жараённинг инсон ҳаётида тутган ўрни, моҳияти	297

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANINI O‘QITISHDA VIRTUAL TA’LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI

DOI: [https://doi.org/ 10.53885/edinres.2021.50.18.023](https://doi.org/10.53885/edinres.2021.50.18.023)

Raximov Farrux Boltayevich,

Buxoro davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli katta o‘qituvchisi

Аннотация: В статье подробно описано современное состояние использования технологий виртуального обучения при преподавании предмета дошкольного образования в общеобразовательных школах, совершенствование методов внедрения технологий виртуального обучения.

Ключевые слова: виртуальное образование, студент, школа, компьютер, дистанционное обучение, анализ, дизайн, разработка, приложение, интернет, оценка, виртуальное наличие.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi holati, virtual ta’lim texnologiyalarni joriy etish metodikasini takomillashtirishni keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual ta’lim, o‘quvchi, mакtab, kompyuter, masofaviy ta’lim, tahlil, loyihalashtirish, ishlab chiqish, qo’llash, internet, baholash, virtual borliq.

Abstract: This article describes in detail the current state of the use of virtual learning technologies in the teaching of the subject of pre-primary education in general secondary schools, the improvement of methods of introduction of virtual learning technologies.

Keywords: virtual education, student, school, computer, distance learning, analysis, design, development, application, internet, assessment, virtual being.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini jadallik bilan rivojlanishi tufayli o‘rta ta’lim mauassasalarining ta’lim va tarbiya jarayoniga kompyuter texnologiyalari, ularning pedagogik dasturiy vositalarini keng ko‘lamda joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada,



O‘zbekiston Respublikasi mактабгача, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi, 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli hamda 2019 yil 6 sentyabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli va 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagagi “Yoshlarni harbiy-vatanpavarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiysi to‘g‘risida”gi 140-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan. Shu bois, Xalq ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish metodikasini (vositalari, usullari, texnologiyalari va shakllarini) takomillashtirish, zamonaviy o‘qitish vositalari yordamida fanni o‘qitishni rivojlantirish, unga oid didaktik materiallarni ishlab chiqish va ularni imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish, o‘quvchi va talabalarning kreativ sifatlarini rivojlantirish davr talabiga aylandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalq ta’limi va oliy ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarini hamda kompyuter va uning pedagogik dasturiy vositalarini, jumladan virtual ta’lim texnologiyalarini kengroq tadbiq etish jiddiy zaruratga aylangan.

Ayni paytda, harbiy qismlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o‘qitishga mo‘ljallangan ko‘plab pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan. Bularga zamonaviy virtual jangovar trenajor sinf xonalari, kompyuter simulyatorlari, sinov va nazorat qilish dasturlari, o‘yinli ta’lim resurslari, elektron o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, video ma’ruzalar, 3-D formatli interfaol o‘quv metodik qo‘llanmalar, elektron trenajyorlar, elektron darsliklar, multimedia ilovalar, axborot ta’lim muhitlari, elektron kitoblar va entsiklopediya, axborotlarni izlash tizimlari, o‘quv ma’lumotlar ba’zasi, aqlli repitorli tizimlarini misol sifatida aytish mumkin.

Shu bois, ayni paytda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda virtual ta’lim texnologiyalarini qo‘llash metodikasini takomillashtirish zarurati mavjud.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘quv jarayoniga

virtual ta’lim texnologiyalarni joriy etish metodikasini takomillashtirish uchun, dastlab elektron ta’limni joriy etishga oid tadqiqotchilarning ilmiy-uslubiy adabiyotlarini tahlil qilish va ular ko‘rsatib o‘tgan pedagogik va psixologik muammolar o‘rganildi. Olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi muammolar borligi aniqlandi:

- yaratiladigan dasturiy vositalar pedagogik va psixologik jihatdan yondashilmayotganligi;
- professor-o‘qituvchilarda kompyuter savodxonligi yetarli darajada emasligi;
- zamon talabiga moslashtirilgan elektron o‘quv-metodik majmualarni yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- professor-o‘qituvchilarda pedagogik dasturiy vositlarni qo‘llash tajribasi yetishmasligi;
- masofaviy ta’limdan foydalanish uchun zamonaviy dasturiy vositalar hamda ularni qo‘llashga oid ilmiy ishlanmalar yetishmasligi;
- yagona metodologik o‘qitish talablar va tizim mavjud emasligi;
- kompyutering pedagogik dasturiy vositalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi to‘lig‘icha ilmiy asoslanmagani.

Yuqorida keltirib o‘tilgan muammolarning yechimi, bir qator o‘ziga xos talab va sharoitlarga bog‘liq.

Virtual ta’lim texnologiyalarini loyi=alashtirishdan asosiy maqsad o‘quvchilarni bor e’tiborini o‘qitish jarayoniga qaratish, o‘quv materiali va ob’ektlarini virtual ta’lim modellari bilan birga yaqqol namoyon qilish, shu asnosida faol tushunishni, eslab qolishni yanada yengillashtirish, o‘quv jarayoniga oddiy kitob o‘rniga inson hissiy xotirasini kuchaytiruvchi kompyuter vositalarini ishlatishdan iborat. Shuning uchun virtual ta’limni loyihalashtirishda, ilmiy jihatdan asoslangan talablar, tamoyillar hamda yaratish bosqichlariga tayanish zarur hisoblanadi.

Yaratilayotgan virtual ta’lim texnologiyalari, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirilishiga qaratilgan bo‘lib, faqat shu sohaga zarur bo‘lgan va talab etilgan qismi kompyuterlashtirish jarayoniga kiritiladi. Zarur bo‘lgan qismlarda ma’lum bir sohaga yo‘naltirilishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘lib, o‘quv ma’lumotni aynan belgilangan qismini virtual shaklga keltirishni talab etadi. Bunga o‘quv ma’lumotni taqsimlash: barcha berilgan matnda muhim qismlarini belgilab chiqish – modullarini (yoki bloklarini), qismlarini (yoki bo‘limlarini), boblarini (yoki mavzularini), paragraflari, paragraf keyingi qismlarga ajratish lozim.

Bu borada, A.Yu.Uvarov elektron ta’lim resurslarini va virtual ta’lim texnologiyalarini yaratish, uning ta’lim tizimiga joriy etish uchun quyidagi bosqichlarni ishlab chiqgan:

- tahlil (o‘quvchilarni o‘qitishning qay darajada nazorat qilinishi,



o‘qitishni maqsadlari);

- loyihalashtirish (rejaning tayyorlanishi, asosiy yechimlarni tanlovi, senariy tuzish);
- ishlab chiqish (reja, senariy);
- qo‘llash (o‘quv materiallaridan o‘quv jarayonida foydalanish);
- baholash (o‘quv resursining natijalari baholanadi va elektron ta’lim resurslarning kamchiliklari aniqlanadi).

Bizning fikrimizcha, Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanidan zamon talablariga mos virtual ta’lim texnologiyalarini yaratish quyidagi taratibda amalga oshirilishi lozim:

1. Virtual ta’lim texnologiyalari yaratiladigan mavzularni aniqlash;
2. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalarini tanlash;
3. Virtual ta’limning maqsadi va mavzusiga loyiq qamrovini tanlash;
4. Virtual ta’limning senariysi va tarkibiy tuzilmasini ishlab chiqish;
6. O‘quv materialini tanlash;
7. O‘quv materiallarining tuzilmasini ishlab chiqish;
8. Multimedia komponentini ishlab chiqish;
9. Aprobatsiyadan o‘tkazish;
10. Hujjatlashtirish (inetellektual mulk agentligidan rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish, mualliflik huquqini belgilash).

Ushbu bosqich asosida o‘quv ma’lumotni tayyorlanish, qabul qilish va taqdim etish uchun zamonaviy o‘quv ilmiy kurslariga yo‘nalishni namoyon qiladi. Bu yerda o‘quv faoliyatini yanada kengroq yoritilishini, tuzilishini oldindan bilish talab etiladi. «Ko‘plab holatlarda virtual ta’lim texnologiyalari pedagogik talablarga amal qilmagan holda yaratilishi tufayli asosiy maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun virtual ta’lim texnologiyalari matnini yaratish vaqtida asosiy qismlarni belgilab, asosiy tushunchalarini ajratgan holda yaratish talab etiladi».

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, ta’lim jarayonida virtual ta’lim texnologiyani qo‘llash zarurmi? Ko‘pchilik hollarni e‘tiborga olmagan holda «ha» deb javob berishimiz mumkin. Bu javobni xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘z samarasini ko‘rsatayotganligi tufayli samarali o‘qitish vosita hisoblanishi aytishimiz mumkin.

Oliy ta’lim muassalarining o‘z oldiga qo‘ygan eng muhim ko‘rib chiqiladigan masalalari ham kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlarini inobatga olgan holda, fanlarni o‘qitishning usul va shakllarini takomillashtirishdan iborat. Bu borada, soha olimlari tomonidan taklif va tavsiyalar berib o‘tgan. Jumladan J.Rittinghouse, J.Ransomelarning fikriga ko‘ra, virtual ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga samarali tadbiq etish uchun Internet tarmog‘ida bulutli xizmatli o‘quv muhitini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish lozim.

aniqlashda sinonimlarning ko‘pligi va ularni talqin etishda ba’zi bir tushunmovchiliklar mavjud. Bu borada, T.T.Shoymardonov, V.S.Xamidov, M.Fayzievalarning fikriga ko‘ra, bugungi ta’lim tizimida “virtual borliq” va “virtual ta’lim” atamalari paydo bo‘lgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq. Immersivlik deganda insonning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim bo‘lsa, interfaollik foydalanuvchi aniq vaqtida virtual borliqdagi ob’ektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib, ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

E.M.Kravchenya virtual borliq tushunchasiga quyidagicha ta’rif bergan: foydalanuvchini suniy olamga sho‘ng‘ishiga imkon beruvchi va harakatlarni audiovizual natijalariga bog‘laydigan maxsus sensorli qurilmalar yordamida bevosita harakat qilishga imkon beradigan kompyuterli modellashtirishning yuqori darajali rivojlangan shakli.

P.X.Jo‘raev, P.F.Safarovarning fikriga ko‘ra, virtual ta’lim – o‘quv jarayoni subektlarining axborot-kommunikatsion texnologiyalari yordamida vjudga kelgan hamkorlikdir.

Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlarini tahlil natijalariga ko‘ra, «virtual ta’lim» tushunchasiga oydinlik kiritish hamda uning virtuallik sifatlarini belgilash imkonini beradi. Fikrimizcha virtual ta’lim imitatsion dasturiy va texnik vositalar yordamida o‘quv materialini vizual shaklida taqdim etishga, murakkab bo‘lgan jarayon va hodisalarni virtual obrazini tashkil etishga, tajriba o‘tkazish murakkab jarayonlarni virtual shaklda o‘tkazishga hamda mustaqil tayyorgarlikning didaktik imkoniyatlarini kengaytirishga, o‘quv faoliyatiga nisbatan motivatsiyani shakllantirishga, fan bo‘yicha asosiy bilimlarni egallashga, ularni tizimlashtirishga, talabalarning mustaqil ishida o‘quv materiallari bo‘yicha uslubiy yordamlashishga undaydigan hamda kreativ fikrlashini oshirishga mo‘ljallangan zamonaviy o‘quv muhitidir.

Virtual ta’lim asosida modul printsipi yotadi. Butun o‘quv kursi dasturining tarkibi alohida har hil mustaqil kurslardan (modullardan) tashkil topgan. Professor-o‘qituvchilar ta’limning har bir bosqichida o‘quvchilarga samarali sinovlarini o‘tkazishlari mumkin. Bu esa chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik ta’limida muhim rol o‘ynaydi, ya’ni, mustaqil bilim oluvchi o‘rtta ta’lim o‘quvchilarini fanga oid egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vosita hisoblanadi.

Tadqiqotimizga oid normativ-huquqiy hujatlarni, ilmiy-metodik manbaalarni hamda pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi mavjud o‘qitish holatining tahlil natijasiga ko‘ra, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitish samaradorligini oshirishga oid pedagogik muammoning yechimi quyidagi asosiy vazifalarni bajarilishiga bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ldi:

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani professor-

o‘qituvchilarda AKT sohasida yetarli darajada malakasini shakllantirish;

□ Chaqiruvga qadar boshlang‘ichtayyorgarlik fanini o‘qitishdaan’ anaviy usullardan voz kechib, yangi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish (elektron ta’lim resurslari, virtual ta’lim texnologiyalari, interfaol o‘quv-uslubiy majmular, elektron darsliklar, bulutli texnologiyalar, elektron trenajyorlar);

□ ayrim murakkab jarayon va hodisalarni namoyish etishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;

□ o‘quvchilarda fanga nisbatan motivatsiyani rivojlantirishga mo‘ljallangan o‘quv topshiriqlarini tadbiq etish;

□ o‘quvchilar mustaqil ravishda amaliy mashg‘ulotlarni olib borishi uchun virtual laboratoriyalarni yaratish;

□ o‘quvchilarni Internet texnologiyalari hamda tarmoqda joylashtirilgan ta’lim portallari, virtual ta’lim platformalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanib (virtual video ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, stendlar, ko‘rgazmali qurollar), o‘qitishning shakl va usullarini yanada takomillashtirish lozim. Bunda o‘quvchilar fanga oid o‘quv materiallarni vizual shaklda o‘rganish va amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini virtual laboratoriylar yordamida bir necha bor tajribalar o‘tkazish imkoniyatiga hamda o‘quvchilar fanga oid hodisa va jarayonlarni virtual shaklda ko‘rishga, kuzatishga ega bo‘ladi. Natijada, ushbu fanga nisbata yanada qiziqishi va motivatsiyasi oshadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni bo‘s sh vaqtini unumli o‘tkazishga, fikrlash doirasini yanada kengaytirishga hamda taffakurini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati

1. Abulxanova-Slavskaya, KA, faoliyat va shaxsiyat psixologiyasi KA Abulxanova-Slavskaya. - M.: Fan, 1980. - 335 p.
2. Agaponov, S. V. Masofaviy ta’lim uchun platformani tanlash: muammolar va echimlar S.V. Agaponov // Ta’lim telekommunikatsiya va axborotlashtirish. - 2005. - № 1. - 48-55.
3. Adolf, V. A. Professional rivojlanish jarayonida o‘qituvchining innovatsion faoliyati V.Adolf, N. F. Il’ina. - Krasnoyarsk: Polikom, 2007. - 190 p.
4. Astlyayner, G. masofadan o‘qitish WWW orqali: Ijtimoiy va hissiy jihatlar G. Astlyayner // Internetda gumanitar tadqiqotlar; tomonidan. A.E. Voyskunsky. - M.: Mozhaisk-Terra, 2000. - S. 333-367.
5. Atanov, G.A. O‘quv va sun’iy intellekt yoki Oliy mакtabning zamonaviy o‘qitish asoslari G.Atanov, I.Pustinnikov. - Donetsk: DOU nashriyoti, 2002. - 504 p.

6. Bobayeva, Yu.P. Axborotlashtirishning psixologik oqibatlari: muammoli bayon Yu.Babayeva, A.E. Voyskunskiy // Ilmiy kengash. - 2005. - № 8. - 83-91.
7. Носов Н. Образование и виртуальнауа реальность / Н. Носов // Дистанционное и виртуальное обучение: Дайджест рос. и зарубеж. прессы. - 2000. - № 11. - С. 31-35.
- 8.Хуторской А.В. О виртуальном образовании / А.В. Хуторской // Дистанционное и виртуальное обучение: Дайджест рос. и зарубеж. прессы. - 2000. - № 1. - С. 25-27.